https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mutallimova Halima Jamoldin qizi

NamDu talabasi Yuridik fakultet 4-bosqich

Halimamutalliyeva@gmail.com

FAVQULODDA HOLATLARDA QOCHQINLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo miqyosida bo'layotgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan qochqinlar masalasi ko'rilgan. Ularga qanday yordam berishning zamonaviy usullari ko'rib chiqidim. Va umumiy statistikalar orqali hozirgi holatlarni tahlilini qildim. Ushbu bo'layotgan holatlar har bir shaxsni e'tiborsiz qoldirmaydi albatta, chunki bo'layotgan urushlar va tabiiy ofatlar oqibatida har birimizning boshimizga tushmaydi deb oldindan prognoz qila olmaymiz. Migratsiya jarayonlari va qochqinlar huquqlarini himoya qilish hozirda juda muhim sanaladi. Bunga qochqinlar qaysi davlatga yordam so'rab borishidan qat'iy nazar har kim ham ularni faol hayotga tatbiq qilishlari kerak va ularga yordam berishlari lozim. Ularni boshqalardan ajralib qolmasligiga , ularni qandaydir kasb bilan shug'ullanishlari va ta'lim jarayinlari to'xtab qolmasligiga yordam berishlari maqsadga muvofiq va davlat rahbarlari ular uchun ko'radigan chora – tadbirlari ham ularga o'zlarini tiklab olishlari uchun yordam beradi. Ularga yordam berishning barcha zamonaviy usullarini ushbu maqolamda yoritib o'tdim. Albatta bu usullar qo'llansa biz barchamiz ularni umumiy qo'llab-quvvatlagan bo'lamiz. Bu usullarning barchasi yordamida ular o'zlarini tiklab olishlari uchun yordam beradi.

Kalit so'zlar

migartsiya, qochqinlar, konvensiya, biometric ro'yxatga olish, raqamli identifikatsiya.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Аннотация

В данной статье рассматривается одна из самых актуальных проблем современного мира — проблема беженцев. В ней проанализированы современные методы оказания помощи беженцам, а также проведён анализ текущей ситуации на основе общих статистических данных. Данные процессы не могут оставить равнодушным ни одного человека, поскольку невозможно заранее спрогнозировать, что войны и стихийные бедствия не коснутся каждого из нас. В настоящее время вопросы миграционных процессов и защиты прав беженцев имеют особую значимость. Независимо от того, в какое государство беженцы обращаются за помощью, необходимо содействовать их интеграции в активную социальную жизнь и оказывать всестороннюю поддержку. Важно предотвратить их социальную изоляцию, обеспечить возможность получения образования и освоения профессии. Меры, принимаемые государственными органами, способствуют восстановлению беженцев и их адаптации к новым условиям жизни. В данной статье подробно освещены все современные методы оказания помощи беженцам. Применение этих методов способствует их поддержке и восстановлению, а также укрепляет общественную солидарность.

Ключевые слова

миграция, беженцы, конвенция, биометрическая регистрация, цифровая идентификация.

Abstract

This article examines one of the most pressing issues in the world today — the refugee problem. It analyzes modern methods of providing assistance to refugees and evaluates the current situation based on general statistical data. These developments affect every individual, as it is impossible to predict that wars and natural disasters will not impact any of us. Currently, migration processes and the

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

protection of refugee rights are of great importance. Regardless of the country to which refugees seek assistance, it is essential to support their integration into active social life and provide them with necessary aid. Preventing social exclusion, ensuring access to education, and enabling vocational training are crucial objectives. Measures taken by state authorities play a significant role in helping refugees recover and adapt to new living conditions. This article highlights all modern methods of assisting refugees. The implementation of these methods contributes to their recovery and represents a collective effort to support them.

Keyword

migration, refugees, convention, biometric registration, digital identification.

Ushbu maqolani yozishimdan maqsad hozirda nafaqat chet davlatlarda balki bizning yurtimizda ham migratsiya jarayonlari ko’p kuzatilmoqda. Avvalo, biz bilishimiz kerak bo’lgan savollar bor.

- Qochqinlar va migrantlarning farqi qanday?
- Ko’chib ketish jarayonida yuzaga keladigan muammolarning huquqiy yechimi qanday?
- Qochqinlarni chet davlatlatrda o’zlarini himoya qilish uchun huquqlari qanday?

Avvalo, bizbilishimiz kerak bo’lgan narsa migrantlar va qochqinlarning farqi qanday? Har bir boshqa davlatga o’tgan fuqaro qochqin bo’ladimi? – Yo’q, aslo unday emas.

Migratsiya bu – shaxslarning iqtisodiy , ijtimoiy, siyosy yoki gumanitar omillar ta’sirida yashash joyini o’zgartirishi bilan bog’liq murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayondir. Migratsiyaning o’zaro turlari mavjud , bular ichki va tashqi migratsiya bor . Ichki migratsiya bir qishloqdan boshqasiga yoki viloyatdan boshqasiga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko’chish. Tashqi migratsiya esa bir davlatdan boshqa davlatga ko’chish hisoblanadi.

Qochqin esa, majburiy sabablarga ko’ra boshqa joyga ko’chish hisoblanadi. Hayot va erkinligini himoyasi uchun boshqa xavfsizroq hududga ko’chib kelish hisoblanadi. Qochqinlar aynan majburiy migratsiya natijasida ko’chgan shaxslar bunga sabab urush, ta’qib va tabiiy ofatlar bo’lishi mumkin. Qochqinlar xalqaro huquqda alohida ta'riflangan va himoyalangan. Bular ta'qiblar, mojarolar, zo'ravonliklar, jiddiy inson huquqlari buzilishi yoki jamoat tartibini jiddiy buzadigan boshqa hodisalardan qochib, o'z uylarini tark etgan va boshqa mamlakatda xavfsizlikni qidirayotgan shaxslardir. Natijada, ular o'zlarining kelib chiqishi mamlakatlari ularni himoya qila olmaydigan yoki xohlamaydigan boshqa davlatdan "xalqaro himoya" ni talab qiladi. Ular asosiy, umuminsoniy huquqdan - boshpana izlash va undan foydalanish huquqidan foydalanadilar. Xalqaro qochqinlar qonunchiligiga ko'ra, shaxs qochqin hisoblanadi va u ushbu ta'rifga javob berishi bilanoq unga shunday munosabatda bo'lishi kerak.



Davlatlar xalqaro huquqqa muvofiq qochqinlarga nisbtan muayyan majburiyatlarga ega:

1. Qochqinlar o’z hududlariga kirib boshpana izlashlarini ta’minlash.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026


2. Qochqinlar xavfsiz hududga chiqish uchun ruxsatnomasiz yoi kerakli hujjatsiz chegarani noqonuniy kesib o'tganlik uchun jazolamaslik.
3. Qochqinlarning asosiy inson huquqlari hurmat qilinishi ta'minlash.
4. Qochqinlarning hayoti yoki erkinligi xavf ostida bo'lgan xavfli vaziyatlarga chiqarib yuborilmasligini ta'minlash.


Qochqinlar maqomini himoya qilish maqsadida 1951- yil 28-iyul kuni Jenevada " Qochqinlar maqomi to'g'risida "konvensiya qabul qilindi. 1954-yil 22-aprel da kuchga kirdi. Ushbu konvensiyada BMt ga a'zo davlatlarga qochqinlar kirsa, ularga shunday majburiyatlarni belgilaydi:

a) Qochqinlarga huquqiymaqom berish ;
b) Ular uchun yashash sharoitlari va asosiy ijtimoiy – iqtisodiy huquqlarini belgilash ;
c) Boshqa davlatlar bilan hamkorlik orqali qochqinlar havfsizliginita'minlash;

Hozirda 20 iyun Butunjahon qochqinlar kunida BMTning Qochqinlar bo'yicha agentligi O'zbekistonning qochqinlarni sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim va sport sohasiga qo'shilishi va shu orqali ularning jamiyatga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlarini e'tirof etadi. Bu bilan O'zbekiston ham qochqinlarni qo'llab -quvvatlash va ularga yordam.berish maqsadini ko'lagan. Bu malumotlar barchasi 2019-yildagi pandemiya holatida bo'lib o'tgan, shu paytda ham O'zbekistonga kelgan 29 nafar qochqinga huquqiy tibbiy yordam ko'rsatilgan. Nafaqat O'zbekiston yordam ko'rsatyapti balki butun dunyo mamlakatlari ham qochqinlarni o'z yurtlariga qabul qilyapti va ularga boshpana huquqiy tibbiy yordam ko'rsatyapti. Bunga misol qilib , quyidagi jadvallarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026





Bu jadvallarda shular ko'rsatilganki, avvalo davlatlar aro qabul qilish keyingisi esa mintaqalar bo'yicha ko'rsatilgan. Eng ko'p qochqin qabul.qilgan davlat hozirda Turkiya hisoblanyapti, keyin Eron, Kolumbiya, Germaniya va Pokiston bo'lib turibdi. 2025-yil hali yankunlangai yo'q shuning uchun bu jadvaldagi raqamlar o'zgarish ehtimoli mavjud. Keyingi jadvalda esa Afrika eng ko'p qochqin qabul qilgani e'tirof etilgan. Keyin Yaqin Sharq ,Osuyo-Tinch okeani, Yevropa va Amerika hisoblanadi bu ko'rsatkichlarning barchasi insonparvarlikdan namuna hisoblanadi. Bundan tashqari, qochqinlar qabul qilishning umumiy ko'rsatkichlari mavjud.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ko‘rsatkich	2025 yil
Majburan ko‘chirilganlar (jami)	≈139.3 mln
Qochqinlar	≈34.0 mln
Asylum izlovchilar	≈9.47 mln
Ichki ko‘chirilganlar (IDP)	≈68.5 mln
Fuqoroligi yo‘qlar (stateless)	≈4.58 mln
Resettlementga muhtojlar	≈2.5–2.9 mln

Yuqoridagi jadvalda esa jami ko'chirilgan fuqarolar berilgan bu tahminan 139.3 mln ga to'g'ri kelyapti. Qochqinlar esa tahminan 34.0 mlnga , Asylum izlovchilar tahminan 9.47mln ga qolganlari ichki ko'chirilganlar, fuqaroligi yo'qlar va Resettlmentga muhtojlar hisoblanadi. Va bu ko'rsatgichlar kun sayin oshib bormoqda. Bu ko'rsatgichlarni barqaror saqlash uchub dunyodagi urushlar va fuqarolarning hayotiga , tinch yashashiga dahl.qiluvchi har qanday xavfli harakatlarni to'xtatish lozim mening fikrimcha. To'g'ri qochqinlarga yordam berish lozim lekin shu urishlar va salbiy harakatlar to'xtatilib dunyoda tinchlik o'rnatilsa shunday majburiyatlar bo'lmaydi. Har bir fuqaroga o'zining tug'g'ilib o'sgan yurtidan yaxshi joy yo'q menimcha.

Qochqinlarning maqomjni himoya qilish maqsadida qabul qilingan 1951-yilgi konvensiyada ham fuqarolarga erkinlik yaratib berish ko'zda tutilgan bo'lishiga qaramay ularni zamonaviyriq usullarini qo'llash paytiga ham yetib keldik. Bu esa ularning himoyasiga zamonaviy texnologiyalar orqali yondashish kerak mening fikrimcha. Ilmiy maqolalar konvensiyalar qochinlar to’g’risidagi videoroliklarni ko’rib chiqib olgan xulosalarim shu bo’ldiki, qochqinlarning himoyasini kuchaytirish lozimki qaysi davlat bo’lishidan qat’iy nazaragar fuqaro istasa o’sha davlat fuqaroligini olishi uni raqamli texnologiyalardan foydalanishi davlatning asl

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

fuqarosi kabi imkoniyatlarga ega bo'lishni ta'minlash kerak. Fuqarolar o'rtasda irqchilikka millatchilikka , ajratib qo'yilishlarga qarshi choralar ko'rilishini taminlashi kerak. Raqamli va innovatsion himoya mexanizmlarini qo'llash lozim masalan: biometric ro'yxatga olish, raqamli identifikatsiya va onlayn boshpana arizalari kabi usullar orqali. Ayollar, bolalar , nogironlar va yolg'iz voyaga yetmaganlar uchun maxsus huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni joriy etish kerak. Bundan tashqari , ularga faqat vaqtinchalik yordam emas umrbod fuqarolikka qabul qilish mumkin, ularni ham faol hayot tarziga qaytarish mumkin, balki shu davlatga qo'shimcha ishchi kuchi sifatidaqo'shilar.ulaning ta'lim olishlriga imkon yaratih zarur , mehnat bozoriga kirishlari ta'lim va kasb –hunar o'rganishlarikerak mening fikrimcha.

Ushbu holatlar yuzasidan beradigan takliflarim shulardan iboratki, qochqinlar huquqlarini himoya qilishda davlat rahbarlari aynan ulaning umumiy holatlatidan kelib chiqib o'z davlatlariga qabul qilish holatlatini , chegaradan hujjatsiz o'tkzaish holatlarini yengillashtirish chioralarini ko'rib chiqishlari lozim . albatta xavfsizlik masalalarini ham inobatga olish lozim. Bundan tashqari ularni faol hayotga tatbiq etish maqsadida ular uchun umumiy yer maydonlari yokida umumiy uy –joy bila taminlar o'qish ish , kasb – hunar uchun shart-sharoitlar yaratib berishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.Bundan tashqari o'sha davlat rahbarlari shunday normativ-huauqiy hujjatlar imzolashlari kerak , ya'ni barcha o'sha davlat fuqarosi hisoblanuvchi shaxslar qochqinlarni ajratmasdan irqchilikka, millatchilikka yo'l qo'ymasdan ularni o'zlari bilan teng munosabatda bo'lishlarini isbotlovchi qonunlar farmom farmoishlar qabul qilishlari lozim. Shundagina, qochqinlar huquqiy maqomga ega bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR);UNHCR. Handbook on Procedures and Criteria for Determining Refugee Status.
2. Convention Relating to the Status of Refugees, 1951

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3. Protocol Relating to the Status of Refugees, 1967
4. Global Compact on Refugees (2018);United Nations General Assembly. Global Compact on Refugees, 2018.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948);United Nations. Universal Declaration of Human Rights, 1948.
6. UNHCR – BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy Komissarligi; https://www.unhcr.org/global-trens;https://www.unhcr.org/global-appeal
7. UN Refugee Agency – Statistical Yearbook;https://www.unhcr.org/refugee-statistic
8. UN OCHA & IDMC (Internal Displacement Monitoring Centre);https://www.internal-displacement.org
9. Goodwin-Gill, G.S., McAdam, J.The Refugee in International Law, Oxford University Press.
10. Hathaway, J.C.The Rights of Refugees under International Law, Cambridge University Press.
11. https://uzbekistan.un.org/uz/132007-bmtning-qochqinlar-boyicha-agentligi-ozbekistonning-qochqinlarni-sogliqni-saqlash-tizimi
12. https://Lex.uz
13. Open AI bot
14. CHAT GPT bot